



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **11 217** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3 819** taga kamaygan yoki **74,6 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **17,3** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-dekabrda **2 203** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,3 %** ga ko'p demakdir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2019-2023- yillar yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



## 2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
924	Oqoltin	726
1 179	Boyovut	928
1 175	Sayxunobod	894
1 152	Guliston	927
876	Sardoba	879
1 321	Mirzaobod	994
2 113	Sirdaryo	1 382
784	Xovos	644
4 105	Guliston sh.	2 674
354	Shirin sh.	295
1 053	Yangiyer sh.	820

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **11 217** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 203** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 674** tani yoki jamiga nisbatan **23,8 %** ni tashkil etdi.

## 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*

Guliston sh.	27,4
Shirin sh.	15,3
Yangiyer sh.	17,6
Oqoltin	20,0
Boyovut	11,7
Sayxunobod	16,9
Guliston	19,1
Sardoba	20,9
Mirzaobod	16,9
Sirdaryo	14,5
Xovos	14,1

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **17,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,5** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **27,4** birlik, Sardoba tumanida **20,9** birlik, Oqoltin tumanida **20,0** birlik, Guliston tumanida **19,1** birlik va Yangiyer shaharda **17,6** birlikka yetdi.


\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich

Guliston shahri  
– 27,4 birlik.




## O'rta ko'rsatkich

Mirzaobod tumani  
– 16,9 birlik.



## Eng past ko'rsatkich

Boyovut tumani  
– 11,7 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **27,4** birlik, Sardoba tumanida **20,9** birlik, Oqoltin tumanida **20,0** birlik, Guliston tumanida **19,1** birlik, Yangiyer shahrida **17,6** birlik, Mirzaobod tumanida **16,9** birlik, Sayxunobod tumanida **16,9** birlik, Shirin shahrida **15,3** birlik va Sirdaryo tumanida **14,5** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Guliston shahri

27,4

Oqoltin tumani

20,0

Yangiyer shahri

17,6

Sardoba tumani

20,9

Guliston tumani

19,1

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

439	Guliston sh.	431
220	Sardoba	290
280	Sirdaryo	249
193	Oqoltin	208
162	Mirzaobod	189
168	Guliston	184
202	Boyovut	177
131	Sayxunobod	158
124	Yangiyer sh.	153
108	Xovos	126
46	Shirin sh.	38

2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – **19,6** %, Sardoba – **13,2** %, Sirdaryo – **11,3** %, Oqoltin – **9,4** %, Mirzaobod – **8,6** %, Guliston – **8,4** %, Boyovut – **8,0** % hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma savdo sohasida 901 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 594 ta hamda sanoatda 258 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma Guliston shahrida 431 ta, Sardoba tumanida 290 ta hamda Sirdaryo tumanida 249 ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulishi % da



So'nggi yillarda Sirdaryo viloyati tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **14 039** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **5 318** (yoki **37,9** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 803** (yoki **20,0** %) ta, sanoat sohasida – **2 413** (yoki **17,2** %) ta, Qurilish sohasida – **1 113** (yoki **7,9** %) ta va boshqa turlarda – **903** (yoki **6,4** %) tani tashkil etgan.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo



Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2022- y. ■ 2023- y.




■ 2022- y. ■ 2023- y.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-dekabrda YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **63,6** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **1,8** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




## 2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,6** % ni, yo'lovchi tashishda **95,2** % ni, chakana savdoda **93,4** % ni, qishloq xo'jaligida **90,8** % ni, yuk aylanmasida **85,3** %, qurilishida **76,2** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 753,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (**1 354,2** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**912,6** mlrd. so'm), Guliston shahri (**567,3** mlrd. so'm), Shirin shahri (**512,7** mlrd. so'm) va Sayxunobod (**321,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Gulistonda (**101,7** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 31,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sirdaryo tumani (28,5 %), Yangiyer shahri (19,2 %), Guliston shahri (11,9 %), Shirin shahri (10,8 %), Sayxunobod tumani (6,8 %), Mirzaobod (5,4 %), Xovos tumani (5,2 %), Boyovut tumani (5,0 %), va Sardoba tumanida (2,9 %) tashkil etdi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



## 2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Guliston sh.	1014,7	97,4
Shirin sh.	63,8	26,5
Yangiyer sh.	209,9	99,4
Oqoltin	79,3	99,3
Boyovut	105,0	97,9
Sayxunobod	83,1	98,3
Guliston	125,7	58,5
Sardoba	110,6	41,6
Mirzaobod	683,1	76,2
Sirdaryo	410,2	74,4
Xovos	88,0	42,1

*hajmi, mlrd. so'mda*


*ulushi, % da*

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 973,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **76,2** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **104,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (**1014,7** mlrd. so'm), Mirzaobod (**683,1** mlrd. so'm), Sirdaryo (**410,2** mlrd. so'm), Yangiyer shaharda (**209,9** mlrd. so'm), Guliston (**125,7** mlrd. so'm), Sardoba (**110,6** mlrd. so'm) hamda Oqoltin (**79,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **11 350,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **73,9 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Boyovut tumani (**7 478,8** mlrd. so'm), Sirdaryo (**1 136,2** mlrd. so'm), Guliston shahri (**707,0** mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (**632,9** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**628,5** mlrd. so'm), Sardoba tumani (**176,5** mlrd. so'm), hamda Shirin shahrida (**173,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi mlrd. so'm, ulushi % da



## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da






# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **13 319,0** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **90,8** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **113,0** % ni tashkil qildi.



## 2019-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Sayxunobod (**1 820,9** mlrd. so'm), Boyovut (**1 995,8** mlrd. so'm), Sirdaryo (**1 752,2** mlrd. so'm), Oqoltin (**1 335,4** mlrd. so'm), Xovos (**1 794,2** mlrd. so'm) hamda Guliston (**1 611,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Sayxunobod	1 820,9	91,0
Boyovut	1 995,8	99,8
Sirdaryo	1 752,2	93,7
Oqoltin	1 335,4	91,5
Xovos	1 794,2	99,5
Guliston	1 611,7	99,4
Sardoba	1 328,1	87,3
Mirzaobod	1 222,8	78,5
Guliston sh.	368,9	99,0
Yangiyer sh.	47,5	99,9
Shirin sh.	41,5	99,9


hajmi, mlrd. so'mda   
ulushi, % da 

## 2019-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 907,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,4 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **107,3 %** ni tashkil qildi.

## 2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Guliston sh.	1 820,2	91,6
Sirdaryo	996,9	98,4
Yangiyer sh.	469,3	95,0
Mirzaobod	348,7	97,2
Boyovut	224,3	74,3
Guliston	235,5	88,7
Sardoba	178,0	98,7
Oqoltin	219,2	98,6
Sayxunobod	187,5	95,1
Xovos	157,8	97,7
Shirin sh.	70,5	99,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (**1 820,2** mlrd. so'm), Sirdaryo (**996,9** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**469,3** mlrd. so'm), Mirzaobod (**348,7** mlrd. so'm), Boyovut (**224,3** mlrd. so'm), va Guliston (**235,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## 2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 111,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **51,0 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri (**889,0** mlrd. so'm), Sirdaryo (**570,3** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**344,9** mlrd. so'm), Mirzaobod (**242,2** mlrd. so'm), Xovos (**202,2** mlrd. so'm), Boyovut (**197,4** mlrd. so'm) va Guliston (**173,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari  
(yanvar-dekabr oylarida)

1 401,5	Savdo xizmatlari	94,3
176,8	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	94,4
757,7	Transport xizmatlar	99,4
90,5	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	66,5
99,7	Boshqa xizmatlar	27,1
126,1	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	81,6
42,5	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	81,0
77,7	Ijara xizmatlari	81,6
23,2	Moliyaviy xizmatlar	1,2
37,5	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	15,9
15,8	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4,5
141,4	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	97,7
120,8	Boshqa shaxsiy xizmatlar	99,1

*Hajmi, mlrd. so'mda*


*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **94,3 %** (**1 401,5** mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **94,4 %** (**176,8** mlrd. so'm), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar – **81,6 %** (**126,1** mlrd. so'm) hamda kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **97,7 %** (**141,4** mlrd. so'm)ni tashkil etdi. Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi aloqa va axborotlashtirish xizmatlar **4,5 %** (**15,8** mlrd. so'm) kuzatildi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da





2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **211,2** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **63,4** % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiyer sh.	105,4	97,1
Sirdaryo	31,5	37,3
Sayxunobod	21,0	67,3
Boyovut	20,4	67,4
Xovos	9,9	88,3
Mirzaobod	7,4	41,0
Oqoltin	6,6	97,9
Sardoba	3,8	91,9
Guliston sh.	3,8	17,3
Shirin sh.	1,0	100,0
Guliston	0,2	1,6


hajmi, mln. AQSH dollar 

ulushi, % da 

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shirin shahrida – **100,0** %, Oqoltin tumanida – **97,9** %, Yangiyer shahrida – **97,1** %, Sardoba tumanida – **91,9** %, Xovos tumanida – **88,3** %, Sayxunobod tumanida – **67,3** %, Boyovut tumanida – **67,4** % va Sirdaryo tumanida – **37,3** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – **1,6** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **380,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **70,7** % ni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida – **99,7** %, Guliston tumanida – **99,6** %, Oqoltin tumanida – **99,2** %, Sayxunobod tumanida – **98,9** %, Shirin shahrida – **98,2** % hamda Sardoba tumanida – **97,6** % ni tashkil etdi.

Yangiyer sh.	99,7
Guliston	99,6
Oqoltin	99,2
Sayxunobod	98,9
Shirin sh.	98,2
Sardoba	97,6
Mirzaobod	92,9
Boyovut	83,3
Sirdaryo	64,7
Guliston sh.	52,1
Xovos	18,9

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



91,9 %

Yuk  
tashishda

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,9 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,8 %** ni tashkil qildi.



85,3 %

Yuk  
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **85,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,8 %** ni tashkil qildi.



95,2 %

Yo'lovchi  
tashishda

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,2 %** ni tashkil qildi.



97,6 %


Yo'lovchi  
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** ni tashkil qildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil IV- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 507 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 163 (32,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 292 (57,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 52 (10,3 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 45,3 % (230 ta), xizmatlar sohasida – 21,1 % (107 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,8 % (65 ta), sanoatda – 12,0 % (60 ta), qurilishda – 8,9 % (45 ta) ni tashkil etdi.

## 2023- yil IV- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil IV- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

138	Guliston sh.	27,2
13	Shirin sh.	2,6
44	Yangiyer sh.	8,7
33	Oqoltin	6,5
44	Boyovut	8,7
40	Sayxunobod	7,9
29	Guliston	5,7
34	Sardoba	6,7
34	Mirzaobod	6,7
72	Sirdaryo	14,2
26	Xovos	5,1


**Soni, birlikda**

**Ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (**138** ta), Sirdaryo (**72** ta), Boyovut (**44** ta), Yangiyer shahri (**44** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV- choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning IV- choragida **147** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV- choragiga kelib esa **164** ta yoki 2018- yilning IV- choragiga nisbatan **17** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **115** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **292** ta yoki **177** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **15** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **52** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **37** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV- choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV- choragida **157** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV- choragiga kelib esa **257** ta yoki 2018- yilga nisbatan **100** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV- choragida **60** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV- choragida **236** taga yetgan yoki **176** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilning IV- choragida **18** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning IV- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **15** tani tashkil etib, **3** taga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV- choragida **53,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **32,3** % ga yoki 2018- yilga nisbatan **20,8** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **41,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV- choragida **57,5** % yoki **16,0** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **5,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **10,2** % ga yetgan yoki **4,8** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar IV- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV- choragida **66,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **50,5** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV- choragiga nisbatan **16,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV- choragida **25,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrda **46,5** % yoki **21,0** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilning IV- choragida **7,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning IV- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,0** % yoki **4,7** % birlikka kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning IV- choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda – **47,0** % ni, xizmatlar sohasida – **20,1** % ni, sanoatda – **17,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **44,5** % ni, xizmatlar sohasida – **21,9** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **17,1** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **44,2** % ni, xizmatlar sohasida – **19,3** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **15,4** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **43,2** % ni, xizmatlar sohasida – **20,6** % ni va sanoatda – **15,6** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **46,6** % ni, xizmatlar sohasida – **22,5** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,3** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **60,0** % ni, sanoat va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,3** % ni tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	41,0	43,6	15,6
<b>Band bo'lganlar soni</b>	18,9	69,7	11,4
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	45,3	46,3	8,4
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	33,4	55,8	10,8
<b>Raqobat muhiti</b>	47,5	44,5	8,0

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	43,0	52,9	4,1
<b>Band bo'lganlar soni</b>	22,3	72,8	4,9
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	38,7	57,0	4,3
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	35,7	60,4	3,9
<b>Raqobat muhiti</b>	43,8	52,9	3,4


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli